

## **BUXORO VILOYATIDA INNOVATSION FAOLIYAT**

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo'llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega. Buxoro viloyatida 2016 yilda 9 ta korxona va tashkilotlar birinchi marta innovatsion mahsulot, ishlar, xizmatlarni o'zlashtirgan bo'lib, ular tomonidan 34918,6 mln. so'mlik innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarildi.

1-jadval

### **2016 yilda Buxoro viloyati bo'yicha o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**


Jami	Ulardan:		
	2016 yilda birinchi marta o'zlashtirgan	2014-2015 yillarda birinchi marta o'zlashtirgan	2014-2016 yillarda takomillashtirilgan
Korxona va tashkilotlar soni	10	9	4
Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz), mln.so'm	40968,1	34918,6	4128,6
Bajarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz), mln.so'm	39524,5	33449,0	4226,0

**1-rasm : 2016 yilda Buxoro viloyati bo'yicha o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlarning ulushi, foizda**



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha innovatsiyalarga xarajatlarning eng katta qismini tashkilotlarning mablag'lari hamda tijorat banklari kreditlari hisobiga tog'ri keldi.

**2-rasm : 2016 yilda moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar foizda.**



2-jadval

**2016 yilda innovatsion faoliyat turlari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, mln.so'm**

	Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar	Texnologik innovatsiyalar ga jami (kapital va joriy) xarajatlar	Marketing innovatsiyalarga xarajatlar	Tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar	Texnologik innovatsiyalar turlari bo'yicha xarajatlar	
					Mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar	Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar
Buxoro viloyati	6426,6	6426,6	-	-	1978,7	4447,9

**2016 yilda joriy qilingan innovatsiyalar soni**

Innovatsiya joriy qilingan tashkilotlar soni	Jami joriy qilingan innovatsiy alar	Shu jumladan tadqiq qilinganlar:					Boshqa tashkilotlar tomonidan	
		O'z kuchi bilan	Boshqa tashkilotl ar bilan hamkorli kda	ulardan:				
				Ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda	Oliy ta`lim muassalari bilan hamkorlik da			
Texnologik innovatsiyalar	8	51	51	-	-	-	-	

**Buxoroda turizm sohasida innovatsion texnologiya**

2017 yil 6-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Madaniyat vazirligi hamda "Tehno Dargoh" MChJ o'rtasida uch tomonlama kelishuv memorandumi asosida, Buxoro viloyatining 51ta (Poyi Kalon ansamblı, Gavkushon madrasasi, Ko'kaldosh madrasasi, Toqi sarofon, Toqi telpakfurushon, Toqi zargaron savdo toqlari, Lavi hovuz majmuasi, Nasriddin Afandi haykali, Nodir Devonbegi madrasasi, Yahudiylar Sinagogasi, Somoniylar maqbarasi, Ark qo'rg'oni va boshqalar) tarixiy ob'ektlarida QR kod o'rnatildi.

Ushbu loyihaga ko'ra viloyatning SMART turizm viloyati sifatida xalqaro turizm bozoridagi imidjni oshirish va sayyoohlarga qulaylik yaratish uchun IT-texnologiyalardan faol foydalanish maqsadida "VERUM QR" qo'shma loyihasini amalga oshirishning amaliy bosqichi boshlandi. O'rnatilgan QR kod lar 1 aprel kuniga qadar 12 ta tilda ob'ekt haqidagi ma'lumotlarni mahalliy va xorijiy sayyoohlarga 3 soniyada taqdim etadi. O'rnatish ishlarida "Tehno Dargoh" MChJ, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi va

Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish inspeksiyasi xodimlari ishtirok etishdi. Mazkur kodlar o'mitilgani zahotiyoyq, mahalliy va xorijiy mehmonlarga katta qiziqish uyg'otdi.

Mazkur loyihalarni takomillashtirish maqsadida 2018 yilning fevral oyida qo'shimcha turistik tashkilotlar (mehmonxona xo'jaligi, restoranlar hamda arxeologik ob'ektlar)ga ham mazkur shakldagi kodlar o'rnatilishi belgilab olindi.



## Buxoro viloyatining Kogon tumanida chiqindilarni saralash va qayta ishlash zavodi ish boshladi.

Zavodning chiqindilarni saralash liniyasi, aniqrog‘i, korxonasida konveyer asosida dastlab og‘ir jismlar – metall, tosh va shisha, so‘ngra yaroqsiz rezina va avtoshinalar, yog‘och-taxta bo‘laklari, shox-shabba va xazon, makalatura, qurilish chiqindilari, plastmassa idishlar, yaroqsiz va qiyqim matolar saralanadi. Barcha jarayon to‘liq va yarim to‘liq avtomatlashtirilgan tarzda boshqariladi.



Buxoro viloyat statistika boshqarmasi

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

*nashr uchun mas'ul: F.Xafizova*

*Tel: (0371) 230-83-18*